



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

UNIVERSALLY RECOGNIZED PRINCIPLES OF DEMOCRACY AND THEIR POLITICAL ANALYSIS

Bekhruz Turdiev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (DSc)

Bukhara State University

Uzbekistan, Bukhara

E-mail: b.s.turdiev@buxdu.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: democracy, progress, society, political regime, law, freedom, rule of law, principles, public oversight, elections, governance.

Received: 08.03.25**Accepted:** 10.03.25**Published:** 12.03.25

Abstract: Democracy is one of the key pillars of social progress, founded on human rights, the rule of law, and the active participation of civil society. This article examines the fundamental principles of democratic governance, with a particular focus on transparency, accountability, and economic freedom. Additionally, it explores the democratic reforms being implemented in New Uzbekistan, their impact on social life, and the achievements in modern public administration. Special attention is given to the study of emerging political trends driven by sustainable democratic development and its universally recognized principles.

DEMOKRATIYANING UMUME'TIROF ETILGAN PRINSIPLARI VA UNING SIYOSIY SHARHI

Bexruz Turdiyev

dotsent, Falsafa fanlari doktori (DSc)

Buxoro davlat universiteti

O'zbekiston, Buxoro

E-mail: b.s.turdiev@buxdu.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: demokratiya, taraqqiyot, jamiyat, siyosiy rejim, huquq, erkinlik, qonun ustuvorligi, prinsip, jamoatchilik nazorati, saylov, hokimiyat

Annotatsiya: Demokratiya bu jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, u inson huquqlari, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatining faol ishtirokiga tayanadi. Ushbu maqolada demokratik boshqaruv tizimining asosiy tamoyillari, xususan, shaffoflik, hisobdorlik va iqtisodiy

erkinlikning siyosiy mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlar, ularning ijtimoiy hayotga ta'siri hamda zamonaviy davlat boshqaruvida erishilgan natijalar yoritiladi. Demokratiyaning barqaror rivojlanishi va uning umume'tirof etilgan prinsiplari asosida shakllanayotgan yangi siyosiy tendensiyalar chuqur o'rganiladi.

УНИВЕРСАЛЬНО ПРИЗНАННЫЕ ПРИНЦИПЫ ДЕМОКРАТИИ И ЕЁ ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бехруз Турдиев

Доцент, доктор философских наук (DSc)

Бухарского государственного университета

Узбекистан, Бухара

E-mail: b.s.turdiev@buxdu.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: демократия, прогресс, общество, политический режим, право, свобода, верховенство закона, принципы, общественный контроль, выборы, власть

Аннотация: Демократия является одной из ключевых основ общественного прогресса, опираясь на права человека, верховенство закона и активное участие гражданского общества. В данной статье анализируются фундаментальные принципы демократического управления, в частности, такие как прозрачность, подотчётность и экономическая свобода. Кроме того, рассматриваются демократические реформы, проводимые в Новом Узбекистане, их влияние на общественную жизнь, а также достигнутые результаты в сфере современного государственного управления. Особое внимание уделяется изучению новых политических тенденций, формирующихся на основе устойчивого развития демократии и её универсально признанных принципов.

KIRISH

Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar xalqimizning ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Bunday demokratik islohotlar mustaqillik yillarida ijtimoiy-madaniy sohadagi islohotlar bilan bog'liq holda kechdi. Demokratik taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy yangilanishlar bilan mushtarakligi xalqimizning sharqona fazilatlarini, dunyoqarashi va hayot tarziga asoslangan holda amalga oshirdi. Jamiyat yangilanishi va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi milliy taraqqiyotimizga xos belgidir. Mazkur belgilar aholining tafakkuri, siyosiy va huquqiy madaniyati, kuchli fuqarolik pozitsiyasi,

saylovlarda demokratik jamiyat manfaatlarini o'zida aks etgan nomzodlarga ovoz berish, davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy faol ishtirok etish shular jumlasidandir. Bu ko'rsatkichlar demokratik jamiyat rivojining ma'naviy yangilanishlar bilan uyg'unligi, ma'naviy hayotning yuksakligi va millat yetukligini aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Biz ushbu muammoni hal etishda avvalo "demokratiya" va "demokratik jamiyat" tushunchalarining mazmun mohiyatini aniq yoritib bersak. Hozirgi kunda demokratiyaning umumiylik jihatlari uning umume'tirof etilgan tamoyillarida o'z ifodasini topib, siyosatchi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida: "Demokratiya (yunoncha δημοκρατία - democratia – xalq hokimiyati, demos – xalq va kratos – hokimiyat so'zlaridan) – konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxlsizligi kabi asoslarini e'tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi" [1] sifatida e'tirof etilgan.

AQSHdagi lug'atlardan biri Merriam-Vebsterda berilgan ta'rifga ko'ra– "demokratik jamiyat bu oliy hokimiyat fuqarolarga taqdim etilgan va vaqt-vaqti bilan ular tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita vakillik tizim orqali erkin saylovlarni o'tkazishdir" [2].

Platon asarlarida: "demokratiyaga, johil tomonidan boshqarish san'atidir, deb ta'rif berilgan. Olim demokratiyani hasadguy kambag'allarning hokimiyati deb biladi" [3]. Platonga fikriga ko'ra davlatlar quyidagi shakllarga bo'linadi:

- 1) Fozil shahar;
- 2) Timokratik shahar;
- 3) Oligarxiya shahri;
- 4) Demokratiya shahri;
- 5) Tiraniya shahri [4].

Platonga ko'ra demokratiya tushunchasi liberalizm an'alariga mosdir. Forobiy esa fozil odamlar shahriga zid bo'lgan davlatlarni 3 turga bo'ladi:

- 1) "Al-madina al-jahila"(johil odamlar shahri);
- 2) "Al-madina al-fasiqa"(fosiq odamlar shahri);
- 3) "Al-madina al-zallah"(zalolatga berilganlar shahri) [5].

Forobiy ta'limotida Platon ilgari surgan g'oyalar kabi erkinlik ko'pchilikning boshqaruvi, siyosiy jarayonda teng darajada ishtirok etishiga qaraganda demokratik rejimning asosiy xususiyatidir. Forobiy tasnifiga ko'ra, johil davlatlarning quyidagi toifalari tavsiya etiladi: (a) kerakli shahar (al-madina al-zaruriya); (b) johil shahar (madina al-najalla); (c) asos shahar (madina al-hissa); (d) timokratiya shahri (al-madina al-karamiya); (e) despotiya shahri (al-madina al-

tagallub); (f) demokratik shahar (al-madina al-jamaiyya) [6]. Forobiy Platonning tasnifiga qo'shimcha ravishda yana ikkita shaharni qo'shadi.

Fransuz mutafakkiri J.J.Russoning fikricha: "demokratiya monarxiya va elitarlikni rad etadigan ijtimoiy tuzumdur" [7]. Demokratiya I.Kant ta'limotida barchaning "xohish-irodasi", "jamiyat" yoki "umumiy" talab deb ta'rif berilgan. Bunda Kant Russoning atamalariga ham murojaat qiladi [8].

Demokratiya bevosita jamiyat taraqqiyotidagi xususiyati, mavjudlik shakllari, ayrim belgi va umumiy tomonlari bo'yicha o'zining alohidalik, xususiylik va umumiylik jihatlari bilan farqlanadi. Demokratiyaning umumiy jihatlari uning umume'tirof etilgan prinsiplari va g'oyalariga tayanadi. Bugungi kunda demokratiyaning umumiy jihatlari ijtimoiy taraqqiyotning asosiy prinsipi sifatida e'tirof etilmoqda. Uning umumiy jihatlari xalqlar va davlatlar mustaqilligini ta'minlash, mustahkamlash, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yuzaga keltirishda, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari intilish, uni zamon talablariga qarab rivojlantirib borishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan yo'riqlari mavjud [9]. Bugungi kunda jahondagi har qanday demokratiyani ana shu umumiy prinsiplar asosida baholash mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

birinchidan, inson huquq va erkinliklari ustuvorligi. Bu huquqlar doirasiga insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquq va erkinliklari kiradi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va manfaatlarini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish, chinakam xalqparvar davlatchilik asoslarini yaratish, aholi farovonligini yanada oshirish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish muhim omil sifatida qayd etilgan. "Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – davlatning oliy maqsadidir" degan norma belgilangan Bosh qomusimizdagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'payib, uning matni 65 foizga yangilangan [10]. Ushbu maqsadga erishish uchun insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, davlat organlari tomonidan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilandi.

Tom ma'noda yangi demokratik tuzumni barpo etishda umume'tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga, xalqimizning yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etdi. Ushbu umuminsoniy qadriyatlarining diqqat markazida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini ta'minlash, huquqiy demokratik, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish davlatimiz oldidagi oliy mas'uliyat ekanligini namoyon etdi.

ikkinchidan, qonun ustuvorligi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas. Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir. Shu boisdan ham barcha bo‘g‘indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo‘lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, birinchi navbatda, bu qoidalarga butun jamiyat a‘zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhit yaratilishi zarur. Qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli muammolarni oldindan ko‘ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga bunday holatning oldini olish, profilaktika ishlari bilan shug‘ullanish juda muhim. Ustuvor, hukmron va oliy maqomga ega bo‘lgan Konstitutsiya va qonunlar davlatchilikning muhim belgilari qatoriga kiradi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda davlatning xalq oldida javobgarligini belgilovchi qonuniylilikning yuridik asoslarini, inson va fuqarolar huquqlarining ustunligiga rioya qilish mexanizmlarini yaratishdan boshlandi.

uchinchidan, fuqarolarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki. Bu prinsip o‘zgarishlar dinamikasida hal qiluvchi omillardan biri – jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyati institutlari roli va nufuzining oshganligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Nimaga deganda, davlat boshqaruvida jamoatchilik nazorati mexanizmlarining joriy etilishi, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining erkinligi demokratik islohotlarning asosiy bo‘g‘iniga aylandi. Chunki demokratiyaning umume’tirof etilgan prinsiplariga muvofiq, jamoatchilik nazoratining kuchayishi, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faol ishtirokining oshishi, mahalliy boshqaruv imkoniyatlarini kengayishi va ommaviy axborot vositalarining rolini ko‘tarishiga olib keldi. Natijada, davlat hokimiyati idoralari o‘z faoliyatida xalqning xohish-irodasi, uning orzu-intilish va manfaatlarini hisobga olgan holda yo‘l tutishiga olib keldi. Bu esa mamlakatimizda xalq bilan muloqot tizimining yangicha demokratik taraqqiyot yo‘li va xalq manfaatlarini ulug‘vorligini ta’minlash omiliga aylanganligidan dalolat beradi.

Buning yorqin misolini biz boshqaruv tizimiga kirib kelgan “fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” degan yangicha g‘oya shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu orqali xalq omili oldinga chiqib, ularga davlat – xalq munosabatlarida yengillik yaratish va oshkoralikni ta’minlash maqsadida xalqqa xizmat ko‘rsatishning yangicha usuli shakllanganligining guvohi bo‘ldik. Agar bu sohada xizmatlar qamrovi va tezkorligi amalga oshirilib, sohada axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish kengaytirilsa, xalqqa xizmat ko‘rsatishning innovatsion, zamonaviy va shaffof tizimiga o‘tiladi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi - fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini

kengaytirish, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, ilg'or tashabbuslarini amalga oshirish, hayotiy muammolarini hal etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o'z moddiy farovonligini oshirishi uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish deganidir" [11].

Shu maqsadda, yurtimizda boshqaruv sohasida jahonning ilg'or davlatlarida amalda bo'lgan "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" tamoyilini real hayotga joriy etishni ko'zlovchi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" [12]gi qonun qabul qilinib, boshqaruvda "xalqchil davlat" prinsipi ustuvorligini ta'minlab berdi. Davlat xalqning taqdiri va kelajagi uchun mas'ul ekanligi, uning moddiy va ma'naviy farovon yashashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi – xalqimizning bugungi kunda roziligi va shukronalik kayfiyatini uyg'otmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda qabul qilingan davlat dasturlari, strategiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar xalqimizning yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyati, uning taraqqiyot yo'li va xalqning orzu va maqsadini ro'yobga chiqarish, millatimizni harakatga keltirishga da'vat etmoqda. Bu borada, rivojlanish strategiyasida 2030 yilgacha davlat boshqaruvini xalq manfaatlariga yo'naltirish ular o'rtasidagi shaffof va halol munosabatlarga asoslangan, samarali ijtimoiy himoya tizimini ta'minlovchi davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish yo'lidan bormoqda. Xalqchil davlatni yaratish uchun davlat va xalq faoliyati o'rtasida samaradorlikka erishish, nomarkazlashtirishni jadallashtirish, mansabdor shaxslarni javobgarligini oshirish, boshqaruv falsafasi va madaniyatini yuksaltirish, davlat xizmatlarini miqdor ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichini ta'minlash asosida mamlakatimizda yuqori darajadagi xalqparvar davlatlar qatoridan joy olishi maqsadga muvofiq.

to'rtinchidan, tenglik har bir fuqaroning siyosiy, huquqiy va ma'naviy tengligi demokratiyaning asosiy qadriyati hisoblanadi. Tenglik butun dunyo bo'ylab barcha insonlar huquqlari hurmat qilinishini va hech bir guruh yoki shaxsning boshqasidan ustunligini ta'minlashning kalitidir. "Fuqarolikning tengligi barcha odamlarning irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, tug'ilishi yoki boshqa holati kabi har qanday sabablarga ko'ra kamsitishdan himoyalanihini nazarda tutadi" [13]. Tenglik umumiy tushuncha sifatida tenglikning beshta alohida turini o'z ichiga oladi: siyosiy tenglik, qonun oldida tenglik, imkoniyatlar tengligi, iqtisodiy tenglik, hurmat tengligi yoki ijtimoiy tenglik.

Bu avvalo insonning qonun oldida tengligi, irqi, jinsi, etnik kelib chiqishi, dini va boshqa jihatlaridan qat'i nazar, individual imkoniyatlarni amalga oshirishda tenglikni anglatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalaridagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir" [14].

beshinchidan, hisobdorlik. Hukumatning javobgarligi - saylangan va saylanmagan davlat mansabdor shaxslari o'z qarorlari va xatti-harakatlarini fuqarolarga tushuntirish majburiyatiga ega ekanligini anglatadi. Hukumatning javobgarligi korrupsiyaning oldini olish va davlat amaldorlarining o'zlari xizmat qilayotgan odamlar oldida mas'uliyatli va ochiq bo'lishini ta'minlash uchun mo'ljallangan turli xil - siyosiy, huquqiy va ma'muriy mexanizmlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bunday mexanizmlar bo'lmasa, korrupsiya gullab-yashnashi mumkin. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" degan prinsip jamiyatda davlat idoralapining inson manfaatlari uchun xizmat qilib, eng avvalo, xalq bilan muloqotning to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilishi fuqarolarning huquq va erkinliklarining real himoya qilinishiga olib kelmoqda.

oltinchidan, shaffoflik. Shaffof bo'lish degani, rahbarlar davlat lavozimida ishlayotgan paytda qilayotgan ishlarini jamoatchilik nazoratiga olishga imkon berishini anglatadi. Fuqarolar jamoat yig'ilishlarida qatnashishi va davlat idoralarida nima sodir bo'layotgani, kim va nima uchun qaror qabul qilishi to'g'risida erkin ma'lumot olishi mumkin. Oshkoralik - bu mas'uliyat sari qadam [15]. Oshkoralik tamoyili davlat boshqaruvi faoliyatining asosiy tamoyillaridan bo'lib, huquqiy va demokratik huquqiy davlat qurishga qaratilgan tamoyildir. Bu tamoyil, o'z mohiyatiga ko'ra, fuqarolarni o'z faoliyati to'g'risida xabardor qilish maqsadida jamiyat uchun ochiq bo'lgan davlat organlarini nazarda tutadi. Partiya yoki fuqaroning ish yuritish bosqichlari va borishi to'g'risida xabardor bo'lish, fayllar bilan tanishish hamda foydalaniladigan tegishli himoya vositalari to'g'risida xabardor bo'lish huquqini ta'minlash maqsadida davlat organlari shaffof harakat qilishi kerak [16].

yettinchidan, doimiy, erkin va adolatli saylovlar o'tkazilishi. Erkin saylov - bu barcha fuqarolar o'zlari tanlagan nomzodga ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lgan saylovlar, adolatli saylov - barcha ovozlar teng huquqqa ega bo'lgan va aniq hisoblangan saylovdir [17]. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida "Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim" [18].

Xususan, mamlakatimizdagi 2019 yildagi yangi Saylov Kodeksi asosida bo'lib o'tgan saylov jarayonlari o'zining adolatliligi va shaffofligi bilan siyosiy hayotimiz tarixiga katta hodisa bo'ldi. Natijada xalqaro miqyosda jahon hamjamiyati tomonidan saylov tizimimizga yuksak baho berilib, ushbu saylov mamlakatimiz imidjini, obro'-e'tiborini yuksaltirishga muhim voqeaga aylandi.

sakkizinchidan, iqtisodiy erkinlik. Demokratik davlatlapda iqtisodiy plyupalizm siyosiy va ijtimoiy plyupalizm bilan o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy

yuksalishining asosi hisoblanadi. Iqtisodiy erkinlik odamlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilish vakolatini anglatadi. Iqtisodiy erkinlikka yondashuvlardan biri erkin bozorlar, erkin savdo va xususiy mulkni ta'kidlaydigan liberal an'analardan kelib chiqadi [19].

2023 yil davomida mamlakatimizning iqtisodiy hayotida ijobiy natijalarga erishildi. Bunda investisiya hajmi sezilarli darajaga ko'tarilib, Jahon banki tomonidan olib borilgan "Biznes yupitish" reytingida mamlakatimiz oldingi yilga nisbatan 7 pog'onaga ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha jahonning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladi. Natijada, O'zbekiston eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldi [20].

to'qqizinchidan, hokimiyatni suiste'mol qilishni nazopat qilish. Hokimiyatni suiste'mol qilish yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish - bu xizmat vazifalarini bajarishga ta'sir qiladigan, mansabdor shaxs sifatida sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlardir. Xizmatni suiste'mol qilishning eng keng tarqalgan shakli – bu hukumat amaldorlarining korrupsiyasidir. Zero, korrupsiya davlat va jamiyatning nafaqat iqtisodiy-siyosiy rivojlanishiga, balki madaniy-ijtimoiy rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Ayni shu ma'noda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'zi bilan aytganda: "Korrupsiya, ta'magirlik, byurokratiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotda ham oyog'imizga bolta urmoqda. Bu illatlarga qarshi keng ko'lamli kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurashmas, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas yekanmiz, bu muammolardan xalos bo'lolmasligimizni hayotning o'zi ko'rsatmoqda" [21]. Keyingi yillarda korrupsiya xavfi va uning oldini olish borasidagi tadbir va ishlar salmog'i kengayib bormoqda. Buning sabablaridan biri sifatida, korrupsiyaga qarshi kurash, uning oldini olish va ta'sirchan choralarini ishlab chiqish masalasining dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidadir.

Bu asosda O'zbekiston Pespublikasi o'zining "Transparency International"dagi reytingini tobora yaxshilamoqda. Mamlakat 2023 yilda 180 mamlakat opasida 121-o'rinni egallagan. 2022 yilda esa mamlakat 126-o'rinni egallagan. 2021 yilda 140-o'rinni, 2020 yilda esa 180 mamlakat orasida 146-o'rinni egallagan [22]. Mazkur japayonlar demokratiyaning umuminsoniy prinsiplariga mos ravishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qapshi kurash agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" [23] gi qarorining qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

o'ninchidan, ko'ppartiyaviylik tizimi. Ko'ppartiyaviylik tizimi - bu hokimiyat uchun kurashayotgan ikkitadan ortiq siyosiy partiyalar mavjud bo'lgan tizim. Ko'ppartiyaviylik demokratiyaning erkin raqobat, plyuralizm, tenglik singari prinsiplarini ifodalaydi hamda siyosiy partiya a'zolarining faolligini ta'minlaydi.

Demokratik davlatda bir nechta partiyalar bo'lishining sabablari quyidagilardir:

- siyosiy mansabga eng yaxshi nomzodni tanlash uchun imkoniyatlarni kengaytirish;

- muxolifatning mavjudligi natijasida zamon hukumatiga muqobil qarashlarni taklif qilish;
- muxolifatning siyosiy lavozimdagilarni tekshirish vazifasini o'tashiga imkon berish [24].

Bir partiyaviy tizimlar fuqarolar uchun alternativalarining yo'qligiga va vakolatlarining to'planishiga olib keladi va ko'pincha diktaturaga olib keladi. O'zbekistonda demokratlashtirish jarayonlaridagi islohotlarda hokimiyatning taqsimlanish tamoyilining amalga oshirilishida ko'ppartiyaviylik tizimi faoliyatini kuchaytirish masalalari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning zamonaviy qiyofasi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy-gumanitar taraqqiyoti, bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan xalqchil va insonparvar siyosat bu borada oldimizda turgan ulug'vor vazifalarni amalga oshirishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Bugun "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida kechayotgan shiddatli islohotlar xalqning kelajakka ishonchini mustahkamlash, uni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, jamiyatda uchrayotgan illatlar, xususan, loqaydlik, boqimandalik va korrupsiya kabi holatlarga qarshi faol kurashishga da'vat etmoqda. "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak". "Inson manfaatlari xamma narsadan ulug'", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi". "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat—qonun ustuvorligida", "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir" singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Eng muhimi, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan, jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgan demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan muqarrar tus olgani xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida ertangi kunga mustahqam ishonch uyg'otmoqda. Ushbu tizimning asosiy maqsadi xalqimiz roziligi va shukronalik hissini uyg'otishdir. Har bir vatandoshimizning bugungi hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlash, ularning og'irini yengil qilish, tashvishga solayotgan muammolarni hal etishga qaratilgan barcha islohotlarimiz zamirida "Xalq manfaatlari ustuvorligi" degan konstruktiv g'oya muajassam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Т.: "Адолат", 2011. –Б.130.
2. Democracy.//<https://www.merriam-webster.com/dictionary/democracy>.
3. Платон. Республика. Перевод Егунова А.Н. – М.: "Наука" АСТ, 2016. -448 с.
4. Платон. Государство. – СПб., "Питер", 2019. -608 с.

5. Abu Nasr al-Farabi, *Al-Siyasah al-Madaniyyah*. Fawzi Mitri Najjar, Beirut: al-Matbaah al-Kathulikiyyah, 2014, 57.5. All quotations are from this edition; all translations are from, Alfarabi, "The Political Regime", translated by Fauzi M. Najjar, in *Medieval Political Philosophy: A Sourcebook*, edited by Ralph Lerner and Muhsin Mahdi. –New York: "Free Press", 2013.-63-73 p.
6. Muhammad Ali Khalidi. Al-Farabi on the democratic city // *British Journal for the History of Philosophy* 11(3) 2003, Routledge Taylor&Francis. -379-394 p.
7. Rousseau J.J. The basic political writings: Discourse on the Sciences and the Arts, Discourse on the Origin of Inequality, Discourse on Political Economy. Second edition. Translated and edited by Donald A.Cress, Contract, The State of War (Hackett Publishing Company, Inc.; Second Edition, 2 (June 15, 2012) -312 p.
8. Иммануил Кант. Критика чистого разума. // (Пер. с нем.; предисл. И. Евлампиева). – М.: "Эксмо"; СПб.: "Мидгард", 2007. -1120 с.
9. Жўраев Н. Тарих фалсафаси. –Тошкент: Маънавият, 1999. –Б.139.
10. Хатамов Р.А. Янги Ўзбекистон Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2023. -Б.28.– 84 б.
11. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. –Б.84. (464 б.)
12. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son.
13. David Beetham. Democracy: its principles and achievement. Geneva: Inter-Parliamentary Union, 1998. -p.29. (103)
14. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б.35.
15. Concepts and principles of democratic governance and accountability. Konrad-Adenauer-Stiftung, 2011. -p.5.
16. Murat Jashari, Islam Pepaj. The Role of the Principle of Transparency and Accountability in Public Administration // *Acta universitatis Danubius*, Vol. 10, № 1, 2018. – pp.61-62.3
17. Kara E. Stooksbury, John M. Scheb II, Otis H. Stephens Jr. (editors), *Encyclopedia of American Civil Rights and Liberties: Revised and Expanded Edition*, 2nd Edition, Volume 2, ABC-CLIO, 2017. -p.386.
18. Sobirovich, T. B. (2022). National and universal principles of democracy. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(1), 334-338.

19. “Economic Freedom and its Measurement”. The Encyclopedia of Public Choice. Vol. 2. Springer. 2004. -pp.161-171.
20. Саидов А. Демократик ислохотлар йўли – биз учун яккаю ягона ва энг тўғри йўлдир //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. –Тошкент: 2020. – №1. –Б.7.
21. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.269.
22. Corruption perceptions index // <https://www.transparency.org/en/cpi/2023>
23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2020-йил 30-июндаги ПҚ-4761-сонли қарори //https://lex.uz/docs/4875782.
24. Concepts and principles of democratic governance and accountability. Konrad-Adenauer-Stiftung, 2011. -p.6.